

TA'LIM TASHKILOTLARINING KLASTERLI YONDASHUVIDA PEDAGOGIK TA'LIM TAMOYILLARI VA MAQSADI

Po'latov Shukur,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Ta'lim menejmenti" kafedrasida dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya. Maqolada faoliyat ko'rsatish strategiyasi, holda klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotlarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda pedagogik ta'limning tamoyillar, ta'lim-tarbiya mazmuni va sohaning o'ziga xos spesifikasi, Klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotining pedagogik jarayonni innovatsion boshqarish, hududning raqobatbardosh ustunliklaridan foydalanish, pedagogik ta'lim klasterli yondashuv asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: Klaster, pedagog-innovator, indikator, ta'lim-tarbiya, hamkorlik.

PRINCIPLES AND PURPOSE OF PEDAGOGICAL EDUCATION IN THE CLUSTER APPROACH OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Polatov Shukur

associate professor of the Department of «Educational Management» of Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, Ph.D.

Abstract. In the article, the principles of pedagogical education in the organization of cooperative activities of educational organizations based on the strategy of activity, the content of education and the specifics of the field, the innovative management of the pedagogical process of the educational organization based on the cluster approach, it is about using the competitive advantages of the region, ensuring competitiveness in the market of educational services based on the pedagogical education cluster approach.

Key words: Cluster, pedagogue-innovator, indicator, education, cooperation.

ПРИНЦИПЫ И ЦЕЛИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ КЛАСТЕРНОМ ПОДХОДЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Полатов Шукур

доцент кафедры «Менеджмент в образовании» Ташкентского государственного педагогического университета им. Низоми, к.п.н.

Абстракт. В статье рассмотрены принципы педагогического образования при организации совместной деятельности образовательных организаций с учетом стратегии деятельности, содержания образования и специфики сферы, инновационного управления педагогическим процессом образовательной организации на основе кластерный подход, речь идет об использовании конкурентных преимуществ региона, обеспечении конкурентоспособности на рынке образовательных услуг на основе кластерного подхода педагогического образования.

Ключевые слова: Кластер, педагог-новатор, индикатор, образование, сотрудничество.

Klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotlarining hamkorliklik faoliyatidagi pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va unig samaradorligini oshirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalarini belgilash, faoliyat ko'rsatish strategiyasini oldindan ko'ra bilish uchun, uning qanday tamoyillarga asoslanishi haqida aniq yo'nalishlari belgilab olinadi. Mamlakatimizda ta'lim siyosatining tamoyillaridan va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotlarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda pedagogik ta'limning quyidagi tamoyillar taklif etiladi:

tabiiy aloqadorlik – klasterli yondashuv asosida sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik, aloqadorlik masalasining tabiiyligi, ya'ni bog'liqlik masalasining hududiy, sohaviy yoki vazifaviy jihatdan ob'ektivligi;

uzviylik va uzluksizlik – klasterli yondashuv asosida sub'ektlarning o'zaro hamkorlikda zanjir hosil qilishi, zanjirni hosil qiluvchi har bir bo'g'in o'zining aniq vazifalariga ega ekanligi, uzluksizlik zanjirida

bo'shliqlarga yo'l qo'yilmasligidir;

izchillik – klasterli yondashuv asosida sub'ektlarning vertikal yagona chiziqda joylashuvi, bunda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab bosqichma bosqich harakatlanish tendensiyasiga amal qilinishidir;

vorisiylik – klasterli yondashuvning avlodlar almashinuvidagi roli, tyutorlik faoliyati, pedagogik ta'limni klasterli yondashuvlashtirish natijasida sub'ektlarning malakali va salohiyatli pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojining (ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan Oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik) muntazam qondirilishiga erishishdir;

zamonaviylik – klasterli yondashuv asosida sohaga oid zamonaviy ilm-fan yutuqlarini tizimga joriy qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir;

yo'naltirilganlik – klasterli yondashuv doirasida amalga oshirilayotgan har bir faoliyat turining aniq maqsadga yo'naltirilganligi, kutilayotgan natijalarni oldindan chamalash va baholash imkoniyatining mavjudligidir.

maqsadning umumiyligi – klasterli yondashuv asosida sub'ektlarning xususiy maqsadlaridan tashqari global aspektdagi yagona maqsad atrofida birlashuvdir;

manfaatlarning xususiyligi - klasterli yondashuv asosida pedagogik ta'lim modelida har bir sub'ektning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo'lishidir;

o'zaro nazorat – klasterli yondashuv modeli doirasida birlashgan ta'lim sub'ektlarining o'zaro yagona tizimni hosil qilishi va bu tizimning nuqsonsiz ishlashidan har bir sub'ektning manfaatdor ekanligi, ma'lum sub'ektda yo'l qo'yilgan xato yoki kamchilik boshqa sub'ektlarning faoliyat samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi, sub'ektlar faoliyatini o'zaro baholash tizimining yo'lga qo'yilishidir.

Klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya mazmuni va sohaning o'ziga xos spesifikasidan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlarda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq:

ta'lim-tarbiyani motivlashtirish yo'nalishi;

ta'lim-tarbiya vositalari yo'nalishi;

ta'lim va fan-texnika yo'nalishi;

ta'lim va ishlab chiqarish yo'nalishi;

ta'lim-tarbiyani innovatsion boshqarish yo'nalishi;

ta'lim-tariyaning ijtimoiy ehtiyojlar yo'nalishi;

ta'lim-tariyaning xurmat qozonishga bo'lgan ehtiyojlar yo'nalishi;

ta'lim-tariyaning o'z qobiliyatini namoyon etishga bo'lgan ehtiyojlar yo'nalishi;

ta'lim-tariyaning jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishi.

Ushbu tasniflarda ta'lim tashkilotida olib boriladigan ta'lim-tarbiya sohasi faoliyati to'laqonli qamrab olingan bo'lib, har bir yo'nalish o'z ichida tarmoqlanadi. Bu yo'nalish va tarmoqlar mazmuni ta'lim turlari o'rtasidagi ta'limiy, ilmiy, uslubiy, ta'lim vositalari va boshqaruv bilan bog'liq hamkorlikning barcha shakli, xususiyati, usuli va texnologiyalarini o'zida jamlaydi.

O'zbekiston sharoitida ta'lim tashkilotida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonini klasterli yondashuvning strategik yo'nalishlari sifatida quyidagilarni tavsiya qilamiz:

Umumiy o'rta ta'lim maktabi va maktabdan tashqari ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'limi muassasalari uchun pedagogik oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash, shuningdek, pedagog kadrlar va soha mutaxassislarining ilmiy-metodik bazalarini shakllantirishni muvofiqlashtirish va o'quv-metodik rahbarlikni amalga oshirish.

Pedagogika sohasidagi talab va ilg'or xorijiy tajriba, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda ta'lim tashkilotlarida davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni amalga oshirish.

3. Pedagogik oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha joylardagi pedagogika sohasidagi ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanishlar olib borishni muvofiqlashtirish.

4. Pedagogik oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha umumta'lim maktablarining ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash asosida pedagogika sohasini rivojlantirishning strategik vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim tashkilotlari rahbar xodimlari va mutaxassislari malakasini sifatli oshirish hamda qayta

tayyorlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan yo'naltirilgan indikatorlarga asoslangan modellardan foydalangan holda amalga oshiri- lishini ta'minlash.

5. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha uzluksiz pedagogik ta'limning informatsion ta'minotini takomillashtirish va pedagog kasbining nufuzini oshirish hamda pedagog-innovatorlarni qo'llab-quvvatlash.

6. Ta'lim tashkilotida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish;

7. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterli yondashuvning platformasini ishlab chiqish.

Klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotlarining hamkorlik faoliyatini bir tizimga mujassamlatirish natijasida quydagi maqsadlarga ega bo'linadi:

1. Tizim indikatorlarining har biri alohida vazifani bajarsada, ammo ular muhimlik darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Klasterli yondashuv tarkibidagi elementlar esa teng huquqli komponentlardan tashkil topadi.

2. Tizim tarkibidagi indikatorlardan birining ishlamasligi butun tizimni nuqsonli ishlashiga yoki ishlamasligiga sabab bo'ladi. Klasterli yondashuv tarkibidagi elementlardan birining ishlamasligi samaradorlikni pasaytirishi mumkin, ammo qolgan elementlarning faoliyatini to'xtatib qo'ymaydi.

3. Tizimni mexanik aloqadorlik asosida ham tashkil qilish mumkin, ammo klasterli yondashuv tarkibidagi indikatorlar ongli, tabiiy va maqsadli aloqadorlikka ega bo'lishi kerak.

4. Tizimni tashkil qiluvchi indikatorlarda har doim ham xususiy manfaatdorlik talab qilinmaydi, ammo klasterli yondashuvda xususiy manfaatdorliksiz indikatorlari yetarli darajada ishlamaydi.

5. Tizimda yagona maqsad mavjud va har bir indikator o'sha maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. Klasterli yondashuvda esa yagona maqsaddan (umumiy maqsaddan) tashqari har bir indikatorning xususiy maqsadi ham bo'ladi. Xususiy maqsadlar umumiy maqsaddan kam ahamiyatga ega emas.

6. Tizim alohida qismlardan iborat butunlik, klasterli yondashuv esa alohida butunliklardan iborat butunlikdir. Klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotlarining hamkorliklikdagi ta'lim-tarbiya jarayoni faoliyatini shakllantirish uchun bir qator muhim shartlar talab etiladi.

Bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarni fikr mulohazalari hamda ayrim ta'lim tashkilotlarida ushbu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan rahbarlarni ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganishimiz natijalari bo'yicha quyidagilarni taklif qilamiz:

hududning raqobatbardosh ustunliklaridan foydalangan holda ta'lim tashkilotlari va o'quv yurtlari o'rtasida o'zaro klasterli yondashuv asosida hamkorlik faoliyatni yo'lga qo'yish;

butun tizimning uzoq muddatli rivojlantirish innovatsiyalari va boshqa strategiyasini belgilovchi yetakchilarni aniqlash;

ichki va tashqi raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan ta'lim tashkiloti xodimlarining malakasi, mahorati va kompetentlik darajasini oshirish imkonini beradigan ilmiy tashkilotlarni belgilash;

ishonch va ijodkorlik muhitini yaratish;

klasterli yondashuvni tashkil etishda bitta hududdagi ta'lim muassasalarining umumiy maqsaddan kelib chiquvchi xususiy manfaatdorlikni hisobga olish;

klasterli yondashuv asosida tashkil etiladigan hamkorlik faoliyatni rivojlantirish va takomillashtirishda eng asosiy masalalarning nazariy asoslarini belgilab olish va muammolarning ilmiy yechimini topish;

individual tajribalarni ijobiy natijalarini o'rganish va tahlil etish hamda amaliy jarayonlarni ommalashtirish;

ta'lim-tarbiya jarayonida jamoatchilikning keng ishtirok etishini ta'minlash. Ularning taklif mulohazalarini o'rganib borish va ijobiy takliflarni amalyotga tatbiq etish;

klasterli yondashuv usulida amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorlik darajasini amaliy jihatdan baholab borish;

klasterli yondashuv usulida o'qitishning mavjud muammolarini tatqiq etish va maqbul yechimlar topish;

bo'lajak pedagogik kadrlarni tayyorlashda klasterli yondashuv asoslarining nazariy-amaliy yo'nalishlarini tanishtirib o'rgatib borish bilan chuqur tanishtirish;

klasterli yondashuv usuli vositasida o'quvchilarning fanlar bo'yicha egallagan bilimlari bilan bir qatorda o'qituvchilarning mahorati, kompetentligi, kompetensiyasi va shaxsiy sifatlarini baholab borish.

Klasterli yondashuv asosida o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish asosida talaba(o'quvchi)larni ijodiylikka, samarali kasbiy mahorat oshirishga xizmat qilishi kerak. Uning antogonistik, noantogonistik (koperativ) va boshqa bir qator yo'nalishlari mavjud. Keyingi paytlarda muhim ahamiyat kasb etayotgan klasterli yondashuv asosida o'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishdan biri boshqariladigan ob'ektning faoliyatiga zamonaviy kreativ yondashish va mazmun mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi va o'rganadi.

Pedagogik ta'lim klasterli yondashuvni, aslida, ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatga qarshi turishga nisbatan kuchlarning birlashishi ma'nosida tushunish ham to'g'ri bo'ladi. Pedagogik ta'lim jarayonini tashkil etishda klasterli yondashuvining ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun bir qator talablarni sifatli qondirishni o'z zimmasiga oladi.

Bular quyidagilardan iborat:

ta'lim turlari va tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro raqobat va ayni paytda bir-birini qo'llab-quvvatlashga asoslangan hamkorlik talablari;

hududning ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xosligidan kelib chiquvchi zamonaviy pedagog ta'lim tadqiqiga qo'yiladigan talablar;

oqilona pedagogik vorisiylikni ta'minlashga qaratilgan rejali va maqsadli siyosat olib borishga qo'yiladigan talablar;

hududning malakali pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirishga qaratilgan talablar;

zamonaviy pedagogik ta'lim vositalariga qo'yiladigan talablar;

pedagogik ta'limni innovatsion boshqarishga qo'yiladigan talablar.

Pedagogik ta'lim jarayonini innovatsion klasterli yondashuv tizimining ob'ekti va sub'ekti hisoblangan raqobatbardosh o'qituvchi va tarbiyachi shaxsini tarbiyalash asosiy maqsad ekan, hozirgi sharoitda o'qituvchi va tarbiyachining an'anaviy faoliyati ta'lim jarayoni, uning tarkibiy jihatlarini loyihalashtirish va tashkil etish, madaniy, ma'rifiy hamda boshqaruv faoliyati bilan birgalikda olib borsagina kutilgan samaraga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Турдикулов Е.О., Джураев Р.Х. ва бошқалар. Интеграциялашган таълим назарияси ва амалиёти. – Т.: Сано-стандарт, 2009. – 176 б.

2. Ходжамқулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари. Пед. фан. док. (ДСс) дисс. автореф. - Чирчиқ, 2020. - 60

3. Кластерные политики и кластерные инициативы: теория, методология, практика. (Коллективная монография). Минобразования и науки РФ, Минэкономразвития РФ, Правительство Пензенской области. Пенза-2013.

4. Осечкина Л.И. Кластерный подход как условие повышения эффективности деятельности вуза. // Высшее образование в России, 2012, №8-9. -С. 73-76.

5. Пўлатов Ш.П. Таълим менжменти ёхуд таълим муассасаларини илмий-методик бошқаришга инновацион ёндашув, Т... "Yosh kuch", 2022. 736 б.